

DINIY MATNLARDA QO‘LLANILADIGAN IBORALARNING DINIY NUTQ USLUBIDA QO‘LLANILISHI VA SINTAKSIS XUSUSIYATLARI

Hayitova Nazokat Jumayevna

TerDu, II kurs magistranti

E-manzil: nazokatkhayitova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada diniy matnlarga xos iboralar va ularning qo‘llanilishi talqin etilgan.*

Kalit so‘zlar: *diniy matn, ibora, diniy uslub, sintaksis xususiyat.*

Abstract: *in this article, expressions specific to religious texts and their use are interpreted.*

Key words: *religious text, phrase, religious style, syntactic feature.*

Аннотация: *В этой статье рассматриваются выражения и их употребление, характерные для религиозных текстов.*

Ключевые слова: *религиозный текст, фраза, религиозный стиль, синтаксический признак.*

Diniy matnlarning sintatik xususiyatlari haqida Sh. Amonturdiyeva o‘zining PHD ishida alohida to‘xtalib o‘tgan. Sh. Amonturdiyeva o‘zining “O‘zbek diniy matnining funksional-stilistik tadqiqi” nomli dissertatsiyasining 3-bob 2-faslini “Diniy matnlarning sintatik xususiyatlari” deb nomlagan va atroflicha yoritilgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatik-stilistik jihatdan ma‘lum darajada o‘rganilgan, og‘zaki va yozma nutqning, alohida olingan asarlarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlar yaratilgan¹.

¹ Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умуркулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. – Тошкент:

Bu ishlarda morfologik va sintaktik vositalarning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Ilmiy matnlar lingvistik xususiyatlari bilan diniy matnlardan jiddiy farq qiladi. His- hayajonni ifodalovchi so'zlar, gaplar, atov gaplarning qo'llanilmasligi gap bo'laklari adabiy til me'yorlariga mos bo'lishi, fikrlar bayonida mantiqiy izchillik kuchli bo'lishi shular jumlasidandir.

Diniy matnlarda fikrlarning o'ziga xos tarzda mantiqiy shakllanishi, Qu'ron va hadislardagi fikrlarning aynan buzmay keltirilishi qo'shma gaplarning qo'llanishi ularni matnlarga yaqinlashtirgan¹

Ushbi iboralar Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning " Hadis va Hayot, Halol ochiq oydindir, harom ochiq oydindir", " Isrof", " Ming bir mavzuda ming bir hadis", " Saodat asri" singari asarlari misolida yig'ib chiqdik.

Diniy matnda qo'llaniladigan iboralarni eshitishimiz bilan hayolimizda diniy tushunchalar gavdalanadi. Sh. Omonturdiyeva diniy frazaologik birliklarini baholash mezoni asosida ijobiy va salbiy holatlarni ifodalovchi frazaologik birliklarga ajratgan.

Yuqoridagi iboralarimizdan shirk keltirmoq, oq qilish, haromga yurish kabi iboralarimiz salbiy munosabatlarni anglatadi.

Iymon keltirmoq, ro'za tutmuq, nikox bog'lamoq kabi iboralar esa ijobiy munosabatlarda qo'llaniladi.

Diniy iboralar ifodalayotgan ma'no diniy leksikalar ifodalagan ma'nodan kuchliroq. Diniy leksikalarni eshitganimizda ularni so'zlashuv uslubida faol qo'llaniladigan leksuka deb o'ylashimiz mumkin

Lekin diniy iboralar diniy uslubga xosligi yaqqol sezilib turadi. Chunki bu iboralardan diniy marosimlarda foydalanamiz yoki diniy vazlar nuqtalarida uchrashimiz mumkin.

Ishning birinch faslida iboralar haqida ma'lumotlar berib o'tdik. O'zbek tili grammatikasi bizga ma'lumki iboralar yaxlit bir gap bo'lagi bo'lib keladi.

Diniy uslubga xos iboralar ham gapda tutgan o'rniga ko'ra barcha gap bo'laklari o'rnida qo'llanib keladi.

Фан, 1988. – Б.191;

¹ SH.Omonturdiyeva asari

Masalan, **Shirk keltirmoq** “Ibn Umar roziyallohu anxumo bir kishining “Yuq! Ka’ba bilan qasamki!” deb qasam ichayotganini eshitib qolib:

“Rasululloh sollallohu alayhi vassalamning “Kim Allohdan o‘zga bilan qasam ichsa, batahqiq shirk keltiibdi”, deganlarini eshitdim”, dedi.

“Ey Nabiy, agar mo‘minlar huzuringa kelib, o‘g‘rilik qilmaslik, zino qilmaslik, farzandlarini o‘ldirmaslik, qo‘llari va oyoqlari orasida bo‘xton to‘qib keltirmaslik va senga ma’rufda isyon qilmaslikka bay’at bersalar, ulardan bay’at olgin. Va Allohdan ularga mag‘firat so‘ra. Albatta, Alloh o‘ta mag‘firatlidir, o‘ta rahmlidir”, degan. (12-oyat).

Dindan chiqmoq

Bu borada Rasululloh sollallohu alayhi vassalamning “Kim Allohdan o‘zga bilan qasam ichsa, batahqiq shirk keltiibdi” degan xadislari umumiy qoidadir. Albatta, kim Alloh taolodan o‘zgani ulug‘lash niyatida, bilib turib, o‘sha narsa bilan qasam ichsa, dindan chiqib mushruk bo‘lishi turgan gap.

Diniy matnlarni oyat va kalimalarni tahlil qilish jarayonida shunga amin bo‘ldimki diniy iboralar haqida deyarli ilmiy ishlar olib borilmagan. O‘zbek tilida qo‘llaniladigan iboralar haqida ko‘plab lug‘atlar tuzilgan va samarali ishlar amalga oshirilgan.

Diniy matnlarda qo‘llaniladigan atamalar va iboralarga Doir lug‘at Muhtarxon. Eshon Umarxo‘janing "Diniy atamalar va iboralar" nomli lug‘atida jamlangan. Ushbu lug‘atda diniy atamalar alfabet tarzida berib o‘tilgan. Lekin iboralar juda kam uchraydi.

Diniy matnlarga xos iboralarni diniy asarlardan izlash va to‘plash zarur.

Diniy iboralar lug‘atini yaratish bugungi kun tilshunoslari oldidagi muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Bu ishlarni amalga oshirish uchun ham diniy ham dunyoviy bilim, tafakkur talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умуркулов Б. Ўзбек нутқи маданияти очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.191;
2. Omonturdiyeva Sh. O‘zbek diniy matnining funksional-stilistik tadqiqi: Fil.fan. fal. dok. diss. – Samarqand, 2021. 168 b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Hadis va hayot. – Toshkent: Hilol nashr, XIV-XV juz.